



ALISHER NAVOIYNING BEBAHO IJODIY-ILMIY MEROSI

Abduvohidova Diyora Norboy qizi
Termiz Davlat Pedagogika Inistituti
Tarix fakulteti

Milliy istiqlol g'oyasi,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Alisher Navoiyning hayoti, faoliyati, boy va serqirra ijodiy-ilmiy merosi va davlatimiz tomonidan shoirga berilayotgan e'tibor, bugungi kunda shoir asarlarining yoshlar tarbiyasi va ilmiy hayotida nechog'lik ahamiyatliligiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *Mutafakkir, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Uchinchi Renessans, Sulton Husayin Bayqaro, Tazkirat ush-shuaro.*

KIRISH

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

So'nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shoir tug'ilgan qutlug' 9-fevral sanasini har yili adabiyot va ma'rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an'anasi qaror topdi. Ulug' so'z san'atkorining asarlari muntazam nashr etilib, navoiyshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti- ni tashkil etish to'g'risidagi 2016-yil 13-maydagi № PF-4797 Farmonida aks etganidek, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan



munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi.⁶⁰

Shu bilan birga, mamlakatimiz hamda bir qator xorijiy davlatlarda haykallari o'rnatilgani, asarlar to'plami to'liq nashrdan chiqarilgani, poytaxtimiz markazidagi ulug' bobomizning muazzam me'moriy yodgorligiga mutanosib ravishda Adiblar xiyoboni barpo etilgani madaniy hayotimizdagi ulkan voqealarga aylandi.

Jonajon Vatanimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.⁶¹

Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etildi.⁶²

Jumladan:

Alisher Navoiy hayoti va ijodini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqildi. Afg'oniston Islom Respublikasining Hirot shahridagi Alisher Navoiyning maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirilmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2020-2021-yillar davomida Alisher Navoiyning qo'lyozmalari asosida shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish ishlarini amalga oshirildi.

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida 2021-yil noyabr oyida Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti, ijodi, adabiy muhiti, ustozlari, zamondoshlari va izdoshlari haqida hikoya qiluvchi, asarlarining qo'lyozma va nashr nusxalari to'g'risida ma'lumot beruvchi adabiy-badiiy ko'rgazmani tashkil etilib, keng kitobxonlar ommasiga yetkazilishi ta'minlandi.

USULLAR

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti- ni tashkil etish to'g'risidagi 2016-yil 13-maydagi № PF-4797 Farmoni.

⁶¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil. 31-avgust.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son qarori.



Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Alisher Navoiy hayoti va ijodini tarixiy-ilmiiy va nternet manbalar asosida yoritib beriladi.

NATIJALAR

So'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Navoiyning zamondoshi bo'lgan Zahridin Muhammad Boburning ta'biricha "Andijon shevasi" bo'lgan shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir "Nizomidin"- "din nizomi", mansab egalariga nisbatan aytilgan "mir"- "Amir" demakdir. Alisher Navoiy g'arbda Chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi" nizomi millati va "din va millatning nizomi" unvoni bilan ulug'lanadi. Butun Turk dunyosi Navoiyni "shams ul-millat" ya'ni millat quyoshi deb ulug'laydi.

Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotning Bog'i davlatxona atalmish joyda xizmatchi oilasida dunyoga kelgan .Otasi G'iyosiddin Muhammad (G'iyosiddin Kichkina temuriylar saroyida amaldorlardan bo'lib, 1453-yilda ozgina muddat Sabzavor shahri hokimi ham bo'lgan .Onasi Shayx Abu said (Mirsayid) qizi. Tog'alari Kobuliy shoir, Muhammad Aliy g'aribiy esa shoir sozanda va xattot sifatida nom chiqargan edilar. Alisherning Bahlulbek ismli akasi (Xorazmda hokim bo'lgan) va Darveshali ismli ukasi (Balx hokimi bo'lgan). Alisher dastlabki maktabda bo'lajak Sulton Husayin Bayqaro bilan birga o'qigan. 1447-yil G'iyosiddin Muhammad yurt notinchligi sababli Iroqqa, ko'chib ketadi, yo'lda Navoiy mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va duosini oladi.⁶³ Alisher oilasi 1451-yilda Hirotga qaytadi.

Alisher 12 yoshida ya'ni 1453-yilda otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etadi. Navoiy Xuroson podshohi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi. 1456-yil Abulqosim Bobur o'z Poytaxtini Xurosondan mashhadga ko'chirgandan so'ng Alisher ham o'z do'sti Husayn Bayqaro bilan Mashhadga boradi. U yerda Alisher Kamol Turbatiy, Mavlono Abdusalom Sheroziy, Sayyidin Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi yirik olim-u fuzololar bilan tanishadi. Nizomiddin Mir Alisher Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadlarga homiylik qiladi.

Navoiy Sabzavorlik olim va shoir Darvesh Mansurdan aruz bo'yicha ta'lim olgan. 1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etdi. Uning o'rnini Abusaid Mirzo egallaydi. Navoiy Mashhad madrasalarida o'qiydi, mantiq, falsafa, riyoziyot (matematika) kabi fanlardan saboq oladi. Abusaid Mirzo taxtga da'vogar bo'lgan Husayin Bayqaroning yaqin kishilarini ta'qib ostiga oladi. Alisherning otasi mulkini musodara qiladi, tog'alari Kobuliy va G'aribiylarni qatl etiradi. Navoiy tahminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogirt sifatida qadrilaydi. Navoiy 1466-yilda Samarqandga keladi va ta'lim ola boshlaydi. Samarqandda mudarrisi

⁶³ Mirkarim Osim. Karvon yo'llarida. "Saylanma". Zulmat ichra nur. 1991-yil. Toshkent. 215-bet.



Xoja Xurd, shoirlar Uloyi Shoshiy, Yusufshoh Badiiy, Safoiy Andijoniy, Riyoziy, Javhariy, Xavofiylar shoirning hayotida o'chmas iz qoldiradi

Navoiy Samarqandda mashhur olim Xoja Fazlulloh Abulays samarqandiydan saboq oladi. Unga Samarqandning ma'rifatparvar hokimi Ahmad Hojibek hokimiylik qiladi. 1469-yilda Hirot taxtini Xusayin Bayqaro egalaydi va maxsus nom bilan Alisherni Hirotga chaqirib oladi. Shoir Husayin Bayqaroning taxtga chiqish munosabati bilan unga bag'ishlab "Hiloliya" qasidasini yozadi. Navoiy davlat arbobi sifatida 1462 – 1472-yillarda muhrdor, 1472 – 1476-yillarda vazir, 1487 – 1488-yillarda Astrabotga hokimlik qiladi. Alisher Navoiy "Amiri kabir" ("Ulug' amir") "Amir ul – muqarrab" ("Podshohga eng yaqin amir") "Muqarrab shohiy" ("Shohning eng yaqin kishisi") unvonlariga musharraf bo'lgan. Navoiy Husayin Bayqaro va uning o'g'illari o'rtasiga tushadi, Badiuzzamonga maslahatlar beradi, uni yo'lga soladi. 1499-yilda Marvda Husayin Bayqaroning yana bir o'g'li Abulmuhsin otasiga qarshi bosh ko'targanda otasi bilan sulh tuzish uchun Alisherning podshoh nomidan vakil bo'lib kelishini shart qilib qo'ygan. Hajga otlangan Alisherni Mshhaddan qaytarishadi. U ota-o'g'ilni yarashtiradi. Navoiy ko'pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga uringan. Shaharlarni obodonlashtirgan, ariqlar qazdirgan, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirgan. Navoiy Ixlosiya, Nizomiya, Xusraviya kabi madrasalar, Xalosiya, Fanoiya kabi xonagohlar, "Shifoia" tabobatxonasini, "Dar ul-hufoz" nomli qiroatxona, o'nlab masjidlar, 52 ta rabot, 20 ta havuz, 16 ta ko'prik va 9 ta hammom qurdirganligi tarixiy asrlar va qaydnomalarda keltirilgan. Har yili 2 mingga yaqin beva-bechoralarga homiylik yordamini ko'rsatgan. Davlatshoh Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" asarida Navoiy boshchiligida Xurosonning mashhur buloqlaridan biri Tus viloyatining yuqori qismida bo'lgan Chashmai gil suvini 80 km qazilib, muqaddas Mashhad shahriga olib kelingani sababli xalqning suvsizlik azobidan xalos bo'lgani haqida yozgan.⁶⁴ Alisher Navoiy o'z ijodida sharq she'riyatining 16 hil janridan foydalangan. Navoiy shoirlarni uch guruhga ajratgan:

1. Ilohiyat sirlarini, ma'rifatini kuylovchilar.
2. Ilohiyatga majozini vosita qilguvchilar.
3. Mijoziy ish kuychilari kabi guruhga ajratgan.

Alisher Navoiy g'azalnavislikda Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarni ustoz deb bilgan. Navoiyning barcha devonlari janr jihatdan rang-barang. Shoirning 8 ta devoni mavjud. Shulardan 7 tasini o'zi tuzgan, bittasini zamondoshlari tomonidan tuzulgan. Jumladan "Badoye'ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Xazoyin ul-maoniy", "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabbob", "Devoni Foniyy" kabilar shular jumlasidandir. Ulug' bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy Xazratlari g'azal janrida ham sermahsul ijod

⁶⁴ B.Ahmedov. "Davlatshoh Samarqandiy". 1967-yil.



qilganlar, umumiy g'azallar soni 3150 dan ziyoddir. Alisher Navoiy ko'plab nasriy asarlar ham yaratgan. Uning tarix, din va tasavvufga oid "Tarixi mulki Ajam" "Tarixi anbiyo va hukamo" "Zubdat ut-tavorix" kabi asarlari ham mavjud. "Nasoyim ul-muhabbat" ya'ni "Muhabbat shahadalari" asarini 1495 – 1496-yillarda yozgan. U Jomiyning "Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds" nomli kitobining erkin tarjimasi bo'lib unda 750 ta mutasavvuf shayx haqida ma'lumot berilgan. Navoiyning ushbu asari butun islom olamidagi XV asr ikkinchi yarimigacha o'tgan jamiki shayxlar haqida ma'lumot beruvchi boy ilmiy-tarixiy manba hisoblanadi. Mir Alisher Navoiy aruz ilmiga bag'ishlab "Mezon ul-avzon" ya'ni "Vazinlar o'lchovi" asarini yozgan. Abadiyatga oid esa "Mahbul ul-qulub" "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlarni yozgan. Jumladan bu "Muhokamad ul-lug'atayni" asari bilan o'zbek tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo'lib maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutloqo qolishmaligi amalda isbot qilib bergan, shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko'rsatadi. Navoiy "Xamsa" si XV asirdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusidir. Asarda o'sha davr ijtimoiy turmushi xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonati, axloq-odobi haqidagi qarashlar o'z aksini topgan.

Jami 51230 misradan iborat bo'lgan Navoiy "Xamsa" asari 1483-1485-yillarda yozilgan bo'lib, besh dostondan iborat.

MUNOZARA

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma'lumot beruvchi manba bu shubhasiz ulug' shoirning o'z asarlaridir. Navoiy garchi o'z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo'lsa-da, lekin shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, "Vaqfiya", "Munshaot" asarlarida ulug' shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, "Majolis un-nafois", "Xamsa", "Munjojt", "Xazoyin ul-maoniy" kabi asarlarida shaxsiy hayoti, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba'zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchratamiz. Ushbu ma'lumotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Shoirning yoshlik davri.
2. Murabbiylari.
3. Tutingan farzandlari.
4. Suhbatdoshlari.
5. Navoiy va Jomiy hamkorligi.
6. Navoiy va saroy.⁶⁵

⁶⁵ Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik [Math] Q. 1: darslik / Sh.Sirojiddinov [va boshq.].- Toshkent: «TAMADDUN», 2018. -520 b.



Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ i sa’ dayn va maj-mai bahrayn” (“Ikki baxtli sayyoralarning kelib chiqishi va daryolarning qo’shilishi”) asari shoir haqida ma’lumot beruvchi ilk manbadir. Bu asar 1467 – 1470-yillar oralig’ida yaratilgan va bevosita hazrat Navoiyning nazorati ostida yakunlangan.

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoir- lar tazkirasi”) asari Alisher Navoiy nomi zikr etilgan ilk tazki- radir. Tazkirada besh asr davomida yashab faoliyat yuritgan 150 ga yaqin ijodkor haqida ma’lumot keltiriladi. Asar 1486-yilda yaratilgan bo’lib, muqaddima, 7 qism va xotimadan iborat. Hazrat Navoiy hayoti va faoliyatiga doir ma’lumot asarning xotima-muallifga zamondosh shoirlar haqidagi qismida keltirilgan.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Haft avrang” (“Yetti taxt”), “Nafahot ul-uns” (“Do’stlik tarovati”) asarlarida ham Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog’liq ko’plab ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”i ta’sirida yaratilgan “Bahoriston” asari 8 ravza (bob) dan iborat bo’lib, 7-ravzada 39 shoirdan biri sifatida Alisher Navoiyga to’xtalib o’tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta’kidlanadi.

Husayn Boyqaroning “Risola”sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she’riyati hamda “Xamsa” asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir “so’z mulkinging kishvaristoni, sohibqironi” deb ulug’lanadi.

G’iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “Xulosat ul-axbor” (“Xabarlar xulosasi”, 1498 – 1499) va “Habib us-siyar” (“Do’stlar siyrati”, 1515 – 1523) asarlarida Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga o’tirishi va Alisher Navoiyning Hirotga qaytishidan boshlab, ulug’ shoirning vafot etishigacha bo’lgan davr oralig’idagi voqealar bayon qilinadi. Tarixchining “Makorim ul-axloq” asari esa Navoiyning yuksak axloqiga bag’ishlangan maxsus risola bo’lib, shoir tarjimai holiga doir muhim faktik ma’lumotlarning keltirilganligi bilan ahamiyatlidir.⁶⁶

Xulosa o’rnida Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o’zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma’naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g’oyalari bugungi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmay kelayotgan so’z san’atkoridir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti- ni tashkil etish to’g’risidagi 2016-yil 13-maydagi № PF-4797 Farmoni.

⁶⁶ Sh. Sirojiddinov. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. - T.: Akademiya nashri, 2011. 326-b.



2. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil. 31-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son qarori.
4. Mirkarim Osim. Karvon yo'llarida. "Saylanma". Zulmat ichra nur. 1991-yil. Toshkent. 215-bet.
5. B.Ahmedov. "Davlatshoh Samarqandiy". 1967-yil.
6. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik [Матн] Q. 1: darslik / Sh.Sirojiddinov [va boshq.].- Toshkent: «TAMADDUN», 2018. -520 b.
7. Sh.Sirojiddinov. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. - T.: Akademnashr, 2011. 326-b.